



## O'ZBEKISTON OILA HUQUQIDA NIKOH TUZISH MASALALARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Huquq ta'limi yo'nalishi magistranti  
To'ychiyev Ibrohimjon

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik normalarida oila huquqi hamda oila qurishning huquqiy asoslari, shuningdek nikoh tuzishda qaysi huquqiy normalarga binoan ish olib borilishi nikoh tuzish yoki uni bekor qilish qoidalari haqida. Bundan tashqari FHDYO organlari qanday hollarda nikoh tuzishga ruxsat berishi yoki to'xtatib qo'yishi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Oila, er va xotin, shartnoma, nikoh, deklaratsiya, milliy, irqiy, diniy, sog'lik, erkak, ayol, huquq, ittifoq.*

**Annotation:** This article is about family law and the legal foundations of family formation in the legal norms of the Republic of Uzbekistan, as well as the rules for concluding or canceling a marriage according to which legal norms are used when concluding a marriage. In addition, information is provided on the cases in which the civil registry office allows or suspends marriage.

**Key words:** *Family, husband and wife, contract, marriage, declaration, national, racial, religious, health, man, woman, law, union.*

**Аннотация:** В данной статье к правовым нормам Республики Узбекистан относятся семейное право и правовые основы образования семьи, а также правила заключения брака или его расторжения, а также правовые нормы заключения брака в соответствии с ними. Кроме того, приводятся сведения о случаях, когда орган ЗАГС разрешает заключение брака или расторгает брак.

**Ключевые слова:** *Семья, муж и жена, договор, брак, декларация, национальность, раса, религия, здоровье, мужчина, женщина, закон, союз.*

**Kirish**

*"Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda*



*ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi".*

**SH.M.Mirziyoyev**

Nikoh oilaning asosi va er-xotinning birgalikda yashash va turmush qurish to'g'risidagi o'zaro kelishuvdir. Bu kelishuv ixtiyoriy bo'lishi hamda erka va ayolning bir-biriga muhabbati va o'zaro tushunishiga asoslanishi lozim. SHuningdek nikoh er va xotinning o'zaro ittifoqi bo'lib, bu ittifoq barcha masalalarni o'zaro birgalashib hal etish va umumiy oila bo'lib yashashga asoslanadi. Ayni paytda nikoh fuqarolik-huquqi va oilaviy-huquqiy shartnoma, to'g'rirog'i ahdnoma ham sanaladi. Bu ahdnomaga ko'ra, ahd qiluvchi tomonlar – erkak va ayol kelajakda birgalikda er-xotin maqomiga kirishish va qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari lozim bo'ladi. Nikoh so'zi arabchadan olingan bo'lib, o'zbek tilida qo'shilish degan ma'noni anglatadi. SHu sababli ham er-xotinlikni qonuniy rasmiylashtirishning yagona usuli bo'lgan nikoh ahdining eng muhim jihati birgalikda hayot kechirishni anglatadi.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, bosqichma-bosqich qonun hujjatlari bazasi yangilanib, to'ldirib borildi. Oilaviy munosabatlarning qonun bilan himoyalaniishi va tartibga solinishi respublikamiz Konstitutsiyasida, Oila kodeksida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topdi.<sup>1</sup>

Yangi tahrirdagi asosiy Qonunimizning 76-80 – moddalarida oilaning huquqiy asosi, jamiyatda oilaning o'rni, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning umumiy jihatlari bayon etilgan. O'zbekistonda oila munosabatlariga doir qonunchilikning rivojlanishiga tarixiy nuqtai-nazardan qaralsa, sobiq ittifoq davrida qabul qilingan 1978 yilgi Konstitutsiyada oila masalasiga faqat bittagina, ya'ni 51-modda ajratilgan edi. Bugungi Konstitutsiyamizda to'rtta moddani o'z ichiga olgan alohida «oila» deb nomlangan bobning mavjudligi respublikamizda oilaviy munosabatlarga naqadar katta ahamiyat berilishidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasining 2-qismida: “Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.»<sup>2</sup>, deb yozilgan. Bu norma «Inson Huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda shunday deyiladi: Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqiy tafovuti, millati yoxud dini bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqlidir.

Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil xuquqlardan foydalanadilar. Nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Oila jamiyatning

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasining 8-syezdidagi ma'ruzasi. 2016-yil 19-oktabr

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.



tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi hamda jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishga haqlidir<sup>3</sup>.

Ko'rinib turibdiki, nikoh erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi<sup>4</sup>.

Nikohga kirishning o'zaro roziligi asosida bo'lishi shartining buzilishi uning haqiqiy emas deb topilishigagina emas, balki g'ayriqonuniy hatti-harakat sodir etib, nikohga kirishga zo'rlagan, aldagan va qo'rqitgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

Deyarli barcha zamonlarda nikohlanuvchilar balog'at yoshiga yetgachgina nikoh qurganlar. Bugungi kunda ham dunyoning aksariyat davlatlari qonunchiligida nikohlanuvchilar uchun muayyan yosh belgilanganligini ko'rish mumkin. Bu albatta, o'sha mintaqadagi insonlarning balog'atga yetishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida balog'atga yetmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'ligini ximoya qilish maqsadida hamda oila qurish uchun ma'lum hayotiy tajriba, jismoniy va ma'naviy yetuklik talab qilinishini e'tiborga olgan holda, qonunchiligimizda nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (FK)ning 22-moddasiga binoan, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la xajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi. Nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganda sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi xaqida qaror qabul qilishi mumkin<sup>5</sup>. Nikoh yoshiga rioya qilmasdan g'ayriqonuniy ravishda nikoh munosabatida bo'lish oila qonunchiligida belgilangan tegishli shaxsiy va mulkiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi<sup>6</sup>.

Nikohni tegishli davlat organlarida rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik xolati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini» bilan tartibga solinadi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huuhiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

FHDYo organlarida nikohni rasmiylashtirish xolatlarini kam deb bo'lmaydi. SHunday holatlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston musulmonlar idorasi tomonidan 2005 yil 29

<sup>3</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 16-modda, 1948-yil 10-dekabr

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. Toshkent: Adolat, 2000. B. 43.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2003. B. 14.

<sup>6</sup> Otaxo'jayev F.M. Konstitutsiya va oila. - Toshkent: TDYuI, 2005. B. 26.



aprelda chiqarilgan yo'riqnomaga asosan shariat nikohidan o'tish uchun FHDYo organlarida nikohdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma talab etilishi belgilandi. Bu esa birinchidan, barcha nikohlanuvchilarning nikohni FHDYo organlar idarasi miylashtirishiga olib kelsa, ikkinchidan, rasmiy nikohsiz tuzladigan nikohlar oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni kamaytiradi.

Nikohlanuvchi tomonlar Oila kodeksining 14-15-moddalarida qayd etilgan nikohdanuvchilarning o'zaro roziliklari va ularning nikoh yoshiga yetganlik shartlariga rioya etgan holda ulardan birining yashash joyidagi FHDYo organiga belgilangan shakldagi ariza bilan murojaat etadilar. Nikohga kiruvchilar tomonidan taqdim etilgan arizalar shu kunning o'zida maxsus daftarga ro'yxatga olinib, arizaning qayd etilgan sanasi va raqami hamda nikohni qayd etish tayinlangan sanasi yozib qo'yiladi. FHDYo organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslarning nikohini qayd etish to'g'risidagi arizasini qabul qilishda belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'llanma beriladi. Buning sababi sog'lom oilani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, irsiyat bilan bog'liq va tug'ma kasalliklarga chalingan bolalar tug'ilishining oldini olish hisoblanadi<sup>7</sup>.

Nikoh nikoh tuzishni xoxlovchi shaxslar bu to'g'risida ulardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi<sup>8</sup>. Bunday muddatni belgilashdan maqsad bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan shaxslarning shoshma-shosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bir oy muddat ichida nikohga kiruvchilar nikoh tuzishga bo'lgan o'z xohishlarini yana tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, bu muddat davomida nikohni qayd etishga monelik qiladigan ba'zi xolatlar ham aniqlanishi mumkin, Lekin, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasiga asosan, FHDYo organi mudiri uzrli sabablar bo'lganda, arizachilarning iltimoslariga ko'ra bir oylik muddatni qisqartirishi ham mumkin. Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish yuzasidan talabnoma kelin va kuyovning har ikkisi tomonidan ariza bilan murojaat etilgan xolda amalga oshirilish lozim. Arizaga muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan hujjatlar ilova qilinishi kerak. Ariza va tegishli xujjatlarni qabul qilib olgan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mudiri muddatni qisqartirish yoki rad etishni, agar qisqartirish lozim bo'lsa, necha kunga qisqartirishni aniq holatga qarab belgilaydi. Bu masalani hal qilayotgan mansabdor shaxs o'z xulosasini yozib, imzo bilan tasdiqlashi lozim. Bunday holat mansabdor shaxslarning muddatni qisqartirishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

<sup>7</sup> Vazirlar Mahkamasining 365-son «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida nizom»ning 1 -bandi, 2003 yil 25 avgust

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 56





Bunda uzrli sabablarni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilishi kerak bo'ladi. Bunday holda muddatni qisqartirish sababi nikohga kirish haqida arizaning yuqori chap burchagiga yozib asoslantiriladi<sup>9</sup>.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin<sup>10</sup>. SHuningdek, nikoh tuzuvchilarning birgalikdagi arizalariga binoan nikohni qayd etish muddati uzaytirilishi ham qonunchilikda ko'zda tutilgan. Ayrim xollarda yetarli asoslar bo'lgan taqdirda, shuningdek FHDYo organining tashabbusi bilan ushbu muddat uch oygacha uzaytirilishi mumkin. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Nikohlanuvchilar nikoh tuzishga mone'lik qiladigan holatlarni yashi-rish oqibatlarini to'g'risida ogohlantiriladi. Agar, nikoh tuzuvchi shaxslarning otalik belgilanmagan birgalikdagi bolalari bo'lsa, u holda FHDYo organi ularga otalikni belgilash tartibini tushuntirishi lozim.

Arizani qabul qilish vaqtida FHDYo organi shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo'yicha arizachilarning qonuniy nikohda turish-turmasligini tekshirib ko'rishi kerak. CHunki, nikohlanuvchilarning loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lishi bu nikohning tuzilmasligiga yetarli asos bo'ladi<sup>11</sup>.

Nikohlanuvchi shaxslar ushbu nikohdan oddin kim bilandir nikoh qurgan bo'lsalar, FHDYo organiga avvalgi nikohni bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishlari kerak. Bu nikohning bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma yoki sud qarori, erning (xotinning) o'limi haqidagi guvohnoma yoxud sudning nikoh haqiqiy emas, deb topilganligi haqidagi qarori bo'lishi mumkin.

Nikohga kirish haqidagi arizani berishda shaxsni tasdiqlovchi huj-jatlar: pasport, harbiy bilet, ofitser yoki praporshchikning shaxsiy gu-vohnomasi ko'rsatilishi kerak.

Agar, nikoh tuzishni xohlovchi shaxs harbiy xizmatni o'tayotgan bo'lsa, bunday vaziyatda u nikohga kirish haqidagi arizani xizmatni o'tayotgan joyida bersa bo'ladi. CHunki, tegishli harbiy qism yoki muassasa joylashgan manzil harbiy xizmatchining yashash joyi hisoblanadi.

Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak. FHDYo organlari xodimlari nikohni qayd etish vaqtida ularga ma'lum bo'lgan shifokorlik sirlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etganligi uchun javob beradilar<sup>12</sup>.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi haqida yo'riqnomasi. - Toshkent: Adolat, 2006. B.26.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 37.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 46.

<sup>12</sup> Vazirlar Maxkamasining «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida nizom»ning 365-son 33 -bandi, 2003 yil 25 avgust



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki nikoh tuzish jarayonida quyidagi qonun qoidalarga amal qilish nikoh tuzish uchun qonunchilikda belgilangan talablarni bevosita bajarish shart

Nikohlanuvchilardan biri er yoki xotinning familiyasini qabul qilmoqchi bo'lsa, unda pasportini almashtirishi zarurligi to'g'risida ogohlantiriladi. Harbiy xizmatga majbur bo'lgan yoki harbiy xizmatga chaqi-riluvchining nikoh qayd etilganligi sababli familiyasi o'zgartirilganda FHDYo organi 7 kun muddatda bu haqda harbiy xizmatga majbur bo'lgan yoki harbiy xizmatga chaqiriluvchi ro'yxatda turgan tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga xabar qilishi lozim.

Nikohni qayd etganlik uchun belgilangan tartibda davlat boji un-diriladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14-16-moddala-rida hamda 17-moddasining uchinchi qismida belgilangan shartlar buzilgan taqdirda, shuningdek soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi<sup>13</sup>.

Sudning nikoh haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori asosida FHDYo organi nikoh qayd etilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga bu haqda belgi qo'yadi va FHDYoning yuqori arxiviga xabarnoma yuboradi.

Sobiq er yoki xotinning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga sud to-monidan xuddi shunday belgilar qo'yiladi. Nikoh sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan hollarda nikoh xaqida takroriy guvoxnoma berilmaydi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasining 8-syezdidagi ma'ruzasi. 2016-yil 19-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 16-modda, 1948-yil 10-dekabr
4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. Toshkent: Adolat, 2000. B .43.
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2003. B. 14.
6. Otaxo'jayev F.M. Konstitutsiya va oila. - Toshkent: TDYuI, 2005. B. 26.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharxlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 53.



7. Vazirlar Mahkamasining 365-son «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida nizom»ning 1 -bandi, 2003 yil 25 avgust
8. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 56
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi haqida yo'riqnomasi. - Toshkent: Adolat, 2006. B.26.
10. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 37.
11. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharxlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 46.
12. Vazirlar Maxkamasining «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida nizom»ning 365-son 33 -bandi, 2003 yil 25 avgust
13. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharxlar. - Toshkent: Adolat, 2000. B. 53.
14. Tolibjonovich, M. T. (2021). Eastern Renaissance And Its Cultural Heritage: The View Of Foreign Researchers. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

